



## ISLOM TARIXI VA UNING ILMII TAXLILI

*Po'latov Farruxbek Salimjon o'g'li*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkkent axborot texnologiyalari*

*universiteti Samarqand filiali*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Islom dinining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va tarixiy jarayonlarga ta'siri ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Islom tarixining bosqichlari, muhim shaxslar, ilm-fan bilan bog'liqligi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola tarixiy manbalar va hozirgi zamon olimlari qarashlariga tayangan holda tayyorlangan.

**Kalit so'zlar:** Islom tarixi, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.), xalifalik, ilm-fan, musulmon olimi, tarixiy tahlil.

Arablar hayotida urug'chilik, qabilachilik tartiblari yemirila boshlab, qulchilik bilan feodal tartiblari shakllanayotgan edi. Natijada arablar ijtimoiy turmushida tabaqlananish, sinfiy tengsizlik ro'y berib, bir tomondan boy badavlat xonadonlar, ikkinchi tomondan qashshoq xonadonlar mavjud bo'lib, hayotda yuqori tabaqa oilalarida dabdabali to'y-ma'rakalar, aysh-ishratbozlik, isrofgarchilik, maishiy aynish avj oladi. Ayni paytda kambag'allar, yetim-yesirlar ahvoli og'ir edi. Rahm-shafqat,adolat kamayib ketgan edi. Bu xususda Qur'onda (Niso surasi va boshqa suralarda) juda ko'p fikrlar aytilgan. «Islom - ixlos, tinchlik, omonlik, sulh, turli ofatlardan salomat bo'lish, itoat, bo'sunish kabi ma'nolarni anglatadi»

(Qarang: Poklik imondandir.T., «O'zbekiston», 1991 yil, 33-bet)

Islom dini VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida paydo bo'lib, qisqa vaqt ichida keng hududlarga yoyildi. Bu din nafaqat diniy e'tiqod, balki siyosiy, madaniy va ilmiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynadi. Islom tarixini o'rganish,



nafaqat diniy masalalarni, balki insoniyat sivilizatsiyasining muhim jihatlarini ham anglash imkonini beradi.

Islom tarixining boshlanishi. Islom dinining asoschisi bo‘lgan Muhammad (s.a.v.) 570-yilda Makka shahrida tug‘ilgan. U 610-yilda Allohdan birinchi vahiyni olganidan so‘ng, Islom dini asos solinib, uning targ‘iboti boshlandi. Makkadagi qattiq qarshiliklarga uchraganlar.

Muhammadga vahiy kelgan. Ollohdan farishta Jabroil vahiy keltirgan. (Vahiy - lug’aviy ma’nosi: «Ukdirish», «diliga solish» mazmunida Ollohning payg’ambariga yuborgan amri).

Muhammadning Islom dini uchun olib borgan kurashi ikki davrga: Makka va Madina davrlariga bo‘linadi. Islomni Makka davridagi targ‘iboti, mushrikiylikka qarshi olib borgan kurashi, melodiy 610 yilning 15 dan 16 avgustga o’tar kechasidan boshlanib to 632 yilning 8 sentyabr-igacha, ya’ni 23 yil davom etgan.

Ibn Is’hoq-Ibn Xishomning «Siratu-r-Rasul-Oolloh» asarida shunday rivoyat keltirilgan: Muhammad Xiro g’orida tunab qolgan bir kechada osmondan ovoz eshitgan va farishta Jabroil unga «O’qi!» deb buyurgan. U «Men o’qishni bilmayman», -deb javob bergen. Jabroil yana «O’qi!» deb ikki bor takrorlagan va har daf'a u og'ir azob chekkan. Oxirida farishta unga ko’rsatib turgan yozuvni behos o’qigan. Keyin Jabroil uning Ollohning elchisi qilib olinganini aytgan. (Qarang: Yuqoridagi kitob, 10-bet). Rasulilloh Xiro g’oridan qaytib kelib, bo‘lgan voqyeani va Qur’on surasining vahiy qilinganini xotini Xadichaga aytgan va darhol Xadicha vahiyini kalima qilib qaytarib musulmon bo‘lgan. 622-yilda Madinaga hijrat bilan yangi bosqich boshlandi. (Al-A‘zami, 2003: 45-bet). Bu voqeia islomiy taqvimning boshlanish nuqtasi sifatida qabul qilinadi.



Madina va Makka aholisi turli janglar olib bordi. Bu janglardan birinchisi 624-yil mart oyida Badr qudug'i atrofida bo'lgan. Bu jangda Muhammad boshchiligidagi 300 dan ziyod musulmonlar va Abujahl boshchiligidagi 850 Makkalik qo'shin qatnashgan. Urushda musulmonlar yengib chiqadi. Natijada musulmonlar jamoasi mustahkamlanadi. Jangda musulmonlar 30 ta ot, 150 ta tuya, ko'p quroq-anjomlarni o'lja oladi. 624-yil 16 mart (Hamal) kuni Qur'onning 8-al Anfol (O'lja) surasi vahiy bo'ladi. Bu surada o'ljani qanday taqsimlash ko'rsatilgan. Unda, o'ljaning beshdan bir qismi musulmonlar jamoasining manfaatiga, piyoda askarga bir hissa, otliq asqarga ikki hissa berilishi ko'rsatilgan, adolatli taqsimlashga da'vat qilingan. Keyinchalik bu qoida xalifalar davrida ham saqlanib qolgan. Badr jangida 622 yildagi ahdnama buzilganligi uchun Kaynuka yahudiy jamoasi jazolanadi va 624 yil 10 aprelda ko'chirib yuboriladi. Musulmonlar bilan yahudiylarning tarixiy nizolari o'sha davrdan boshlanib, hozirgi davrda arab davlatlari bilan isroil mojaralarida davom etmoqda. Madinada siyosiy va ijtimoiy jihatdan mustaqil musulmon jamoasi shakllandi. Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng xalifalik davri boshlandi. Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali kabi xalifalar boshqaruvida islomiy davlat kengayib bordi.

Xalifalik davrlari va siyosiy tarix. Islom tarixi xalifaliklar davriga bo'linadi. Ular quyidagilar: Rashidun xalifaligi (632–661). Bu davrda Islom g'oyaviy jihatdan mustahkamlandi. Arab yarim orolidan tashqariga chiqsa boshladи. Badr, Uhud va Yarmuk kabi janglar bu davrda ro'y berdi. Umaviyyalar xalifaligi (661–750), Damashq markaziga aylangan bu davlatda siyosiy va harbiy kuch katta rol o'ynadi. Islom Ispaniyagacha yoyildi. Shu bilan birga, siyosiy ziddiyatlar kuchaydi.

Abbosiylar xalifaligi (750–1258). Bag'dod markaz bo'lib, bu davr Islom ilm-fani va madaniyatining gullagan davri hisoblanadi. Bayt al-Hikma ochildi. Bu davrda musulmonlar tomonidan yunon, hind va fors ilmlari arab tiliga tarjima qilinib, o'zlashtirildi.



Keyingi davrlarda Xalifaliklar tanazzulga yuz tutgach, Usmoniyalar imperiyasi (1299–1924) Islom markaziga aylandi. 1924-yilda xalifalik tugatildi, ammo Islom dini butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar e’tiqod qiladigan din sifatida saqlanib qoldi. Asrlar davomida taraqqiyoti. Islom dini VIII–X asrlarda o‘zining "Oltin davri"ni boshdan kechirdi. Bu davrda Bag‘dod, Damashq, Kufa, Qohira kabi shaharlarda yirik ilmiy markazlar faoliyat yuritdi. Xalifa Ma’mun tomonidan asos solingan Bayt al-Hikma (Donishmandlar uyi) ko‘plab yunon, fors va hind asarlarining arab tiliga tarjima qilinishiga sabab bo‘ldi (Nasr, 2006: 78-bet).

Islom olamida falsafa, matematika, tibbiyot, astronomiya kabi fanlar taraqqiy etdi. Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Biruniy, Al-Farobi kabi allomalar butun dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo‘shdilar. Masalan, Al-Xorazmiy algebra asoschilaridan biri hisoblanadi (Rashed, 1994: 112-bet).

Islom dini ilk davrlaridanoq ilm olishga katta e’tibor bergan. Qur’oni Karimda bilimli kishilar yuqori darajada ulug‘langan (“Bilim egalari bilan bilmaganlar teng bo‘ladilarmi?”, Zumor surasi, 9-oyat). Hadislarda ham ilm olish har bir musulmon uchun farz deb belgilangan (Bukhari, Ilm kitobi).

Bu ilmgaga intilish musulmonlar orasida fan va texnologiyaga qiziqishni kuchaytirgan. Islom tarixida ilm-fan din bilan qarama-qarshi emas, balki uyg‘un holda rivojlangan. Bu holat, ayniqsa, Andalusiya va Abbosiylar davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar. Bugungi kunda islom tarixini o‘rganish faqat diniy manbalar bilan cheklanmay, arxeologiya, sotsiologiya, tarixshunoslik va madaniyatshunoslik kabi fanlar yordamida ham amalga oshirilmoqda. Zamonaviy tarixchilarning yondashuvlari islom tarixining yanada chuqurroq tahliliga imkon beradi. Misol uchun, Patricia Crone, Fred Donner kabi g‘arbiy tadqiqotchilar Qur’on va ilk islomiy hujjatlar asosida dinning tarixiy kontekstini qayta ko‘rib chiqishni taklif qilishmoqda (Donner, 2010: 56-bet).



## FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Al-A‘zamiy, M. M. Qur’on matnining tarixi: Vahiydan to jamlanishgacha. – Lester: UK Islamic Academy, 2003. – 376 bet.
2. Nasr, S. H. Islomda fan va sivilizatsiya. – Kembrij: Harvard universiteti nashriyoti, 2006. – 320 bet.
3. Roshdi Roshid. Arab matematikasining taraqqiyoti: Arifmetikadan algebragacha. – Dordrecht: Springer, 1994. – 342 bet.
4. Imom Buxoriy. Sahih Buxoriy. Ilm kitobi. – Riyoz: Dorus-salom nashriyoti, 1998. – 672 bet.
5. Donner, Fred M. Muhammad va mo‘minlar: Islomning dastlabki davrlari. – Kembrij: Harvard universiteti nashriyoti, 2010. – 304 bet.
6. Qur’oni karim. Tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2013. – 624 bet.
7. Kroun, Patrisiya; Kuk, Maykl. Hagarizm: Islom dunyosining shakllanishi. – Kembrij: Cambridge University Press, 1977. – 304 bet.
8. Xodjson, M. G. S. Islom sarguzashti: Vijdon va tarix uyg‘unligi. 1–3 jild. – Chikago: Chikago universiteti nashriyoti, 1974. – 1237 bet.
9. Lapidus, I. M. Islom jamiyatlari tarixi. – 2-nashr. – Kembrij: Cambridge University Press, 2002. – 1000 bet.
10. Gutas, Dimitri. Yunon tafakkuri, arab madaniyati: Bag‘dod va Abbosiylar davridagi tarjima harakati. – London: Routledge, 1998. – 224 bet.